

KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAYANCH KOMPETENSIYANING ASOSIY ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Nasimova Nasiba Qurbon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbuni maqolada Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyaning asosiy elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari turli misollar bilan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, Katta maktabgacha davr, kompetensiyaning asosiy elementlari.*

Katta maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiy, ijtimoiy, nutqiy, bilish va emotsional rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni faol idrok etadi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, o‘z fikrini izchilroq ifodalashga harakat qiladi, predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay boshlaydi, o‘z xatti-harakatini muayyan qoidalarga moslashtirishga intiladi. Shu sababli katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarning asosiy elementlarini shakllantirish nafaqat maktab ta’limiga tayyorgarlik, balki bolaning keyingi ijtimoiylashuvi, mustaqil faoliyat yuritishi va shaxs sifatida rivojlanishining muhim pedagogik sharti sifatida qaraladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyaning asosiy elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu davrda bolalarda nutqiy faollik, bilishga qiziqish, ijtimoiy-emotsional moslashuv, mustaqil harakat qilish, tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish va ijodiy ifodalanish ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Ayniqsa, katta maktabgacha yoshdagi bola o‘yin, muloqot, kuzatish, tajriba, tasviriy va ijodiy-amaliy faoliyat jarayonida atrof-muhitni anglaydi, o‘z fikrini bildiradi, savol beradi, boshqalarni tinglaydi, guruh qoidalariga rioya qiladi hamda muammoli vaziyatlarda oddiy yechim topishga intiladi. Shu bois tayanch kompetensiyaning asosiy elementlarini shakllantirishda ta’limiy faoliyatlarni alohida-alohida emas, balki integrativ yondashuv asosida o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xosligi shundaki, bu jarayon bolaga tayyor bilimlarni berish bilan chegaralanmaydi. Bola bilim, ko‘nikma, malaka va ijtimoiy tajribani bevosita faoliyat jarayonida, ya’ni o‘yin, muloqot, kuzatish, tajriba, ijodiy-amaliy mashg‘ulot, harakatli faoliyat va tengdoshlari bilan hamkorlik orqali egallaydi. Shuning uchun bu yosh davrida kompetensiya bolaning “bilishi” bilan emas, balki “bajara olishi”, “muloqot qila olishi”, “fikir bildiradi olishi”, “kelisha olishi”, “mustaqil harakat qila olishi” va “o‘z tajribasini yangi vaziyatda qo‘llay olishi” bilan belgilanadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi mazmunidan kelib chiqib, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya - “Men” konsepsiyasini qurish hamda bilish kompetensiyasi asosiy tayanch yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Ushbu kompetensiyalar bir-biridan alohida holda emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq tarzda shakllanadi. Chunki bola muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi, bilish faoliyatida nutqdan foydalanadi, o‘zini anglash jarayonida boshqalar bilan munosabatga kirishadi, mustaqil fikrlash esa uning shaxsiy va kommunikativ rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kommunikativ kompetensiya katta maktabgacha yoshdagi bolaning fikrini tushunarli bayon qilishi, suhbatga kirishishi, savol berishi, javob qaytarishi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot o‘rnatishi, nutqiy vaziyatga mos harakat qilishi bilan ifodalanadi. Bu kompetensiyaning asosiy elementlari fikr bildirish, tinglash, dialogda ishtirok etish, savol-javob qilish, nutq madaniyatiga rioya etish, o‘z munosabatini og‘zaki ifodalash va boshqalar fikrini tushunishga intilishdan iborat. Katta maktabgacha yosh davrida bola so‘z boyligini kengaytiradi, gap tuzish malakasi rivojlanadi, voqea-hodisalarni izohlashga harakat qiladi, suhbat jarayonida o‘z fikrini asoslashga urinadi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bolani majburiy javob berishga undash emas, balki uni tabiiy muloqot vaziyatiga jalb etish muhimdir. Chunki bola erkin suhbat, rolli o‘yin, hikoya tuzish, savol-javob, guruhli muhokama, sahnalashtirish va ijodiy topshiriqlar orqali muloqotni hayotiy ehtiyoj sifatida egallaydi. Masalan, bola o‘yin jarayonida rol bajaradi, suhbatdoshining fikrini tinglaydi, javob qaytaradi, kelishadi va o‘z fikrini vaziyatga mos ifodalaydi. Bu jarayonda nutqiy faollik bilan birga ijtimoiy moslashuvchanlik va emotsional javobchanlik ham rivojlanadi.

Kommunikativ kompetensiyaning muhim jihatlaridan biri tinglash madaniyatidir. Bola faqat gapirishni emas, balki suhbatdoshini eshitishni, gapni bo‘lmaslikni, savol mazmunini tushunishni, javobni vaziyatga mos tanlashni ham o‘rganadi. Bu esa bolaning muloqot madaniyati, ijtimoiy xulqi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli kommunikativ kompetensiya katta maktabgacha yoshdagi bolalarda alohida nutqiy mashqlar bilangina emas, balki ijtimoiy vaziyatlar, o‘yinli topshiriqlar va hamkorlikdagi faoliyatlar asosida shakllantirilishi zarur.

Ijtimoiy kompetensiya katta maktabgacha yoshdagi bolaning jamoada o‘z o‘rnini topishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, umumiy qoidalarga amal qilishi, o‘z xatti-harakatini guruhdagi vaziyatga moslashtirishi, kelishuvga erishishi va boshqalar bilan ijobiy munosabat o‘rnatishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu kompetensiyaning asosiy elementlari hamkorlik, jamoada ishlash, kelishish, navbat kutish, yordam berish, boshqalar fikrini inobatga olish, nizoli vaziyatlarda murosa qilish va ijtimoiy me‘yorlarga rioya etishdan iborat.

Katta maktabgacha yoshda bola ijtimoiy munosabatlarni ongliroq tushuna boshlaydi. U “meniki” va “bizniki”, “xohlayman” va “kerak”, “qoidaga amal qilish” va “kelishish” kabi ijtimoiy tushunchalarni amaliy faoliyatda o‘zlashtiradi. Shu bois ijtimoiy kompetensiya

bolaning faqat odobli bo'lishi bilan cheklanmaydi, balki uning jamoaviy faoliyatda qatnashishi, o'z manfaatini boshqalarning ehtiyoji bilan muvofiqlashtirishi, guruhdagi vazifani bajarishi va umumiy natijaga hissa qo'shishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishda guruhli faoliyatlar, kooperativ o'yinlar, kichik jamoalarda ishlash, rolli vaziyatlar, umumiy ijodiy topshiriqlar va tarbiyaviy suhbatlar muhim o'rin tutadi. Bola hamkorlik jarayonida o'zaro yordam, javobgarlik, kelishuv, sherikning harakatini hisobga olish va umumiy maqsad sari intilish tajribasini egallaydi. Bu jarayon integrativ yondashuvda yanada samarali kechadi, chunki ijtimoiy munosabatlar o'yin, muloqot, bilish va ijodiy-amaliy faoliyatlar bilan birgalikda tashkil etiladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiya elementlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch kompetensiya elementi	Namoyon bo'lishi	Integrativ yondashuvdagi ahamiyati
Nutqiy-kommunikativ faollik	Fikrini ifodalaydi, savol beradi, suhbatdoshni tinglaydi	Muloqot va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi
Kognitiv faollik	Kuzatadi, taqqoslaydi, oddiy xulosa chiqaradi	Bilish, tajriba va STEAM faoliyatlarini bog'laydi
Ijtimoiy-emotsional moslashuv	Guruh qoidalariga rioya qiladi, tengdoshlari bilan kelishadi	Hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi
Mustaqil harakat qilish	Topshiriqni bajaradi, oddiy qaror qabul qiladi	Bolaning faolligi va mas'uliyatini oshiradi
Hamkorlikdagi faoliyat	Jamoaviy o'yin va topshiriqlarda ishtirok etadi	Muloqot, o'yin va ijodiy faoliyatni uyg'unlashtiradi
Ijodiy ifodalanish	Rasm chizadi, yasaydi, sahnalashtiradi, yangicha fikr bildiradi	Ijodiy, nutqiy va kognitiv rivojlanishni bog'laydi

Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki bu yondashuv bolalarning turli faoliyat turlarini – o'yin, suhbat, ijodiy topshiriq, kuzatish, tajriba, rolli vaziyat va jamoaviy harakatlarni o'zaro bog'liq holda tashkil etishga imkon beradi.

Shaxsiy kompetensiya — “Men” konsepsiyasini qurish katta maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini sezish, xatti-harakatini boshqarish, mustaqil tanlov qilish, tashabbus ko'rsatish va o'z faoliyatiga baho berishga intilishi bilan bog'liqdir. Bu kompetensiya bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Katta maktabgacha yosh davrida bola o'z ismi, yoshi, oilasi, qiziqishlari, bajara oladigan ishlari, xohishlari va hissiy holatlarini anglay boshlaydi. Natijada unda o'ziga nisbatan dastlabki baholovchi munosabat shakllanadi.

“Men” konsepsiyasini qurish bolaning mustaqilligi, mas’uliyati va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bola topshiriqni mustaqil bajarishga urinadi, tanlov qiladi, o‘z harakati natijasini ko‘radi, xatosini tuzatishga harakat qiladi. Bu jarayonda tarbiyachining haddan tashqari tayyor ko‘rsatma berishi emas, balki bolaning mustaqil izlanishiga imkon yaratishi muhim hisoblanadi. Chunki shaxsiy kompetensiya erkin tanlov, qo‘llab-quvvatlash, rag‘bat, ishonch va refleksiv suhbat asosida rivojlanadi. Shaxsiy kompetensiyaning asosiy elementlari o‘zini anglash, o‘zini baholash, o‘zini boshqarish, mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyat va emotsional barqarorlikdan iborat. Bola o‘z his-tuyg‘ularini anglashni, xafa bo‘lganda o‘zini tutishni, muvaffaqiyatsizlikdan keyin faoliyatni davom ettirishni, topshiriqqa mas’uliyat bilan yondashishni bosqichma-bosqich o‘rganadi. Bu elementlar maktab ta’limiga tayyorgarlikda ham muhim ahamiyatga ega, chunki maktab sharoitida bola topshiriqni tushunishi, o‘zini tartibga solishi, faoliyatni yakunlashi va o‘z xatti-harakatiga javobgarlik bilan yondashishi kerak bo‘ladi.

Bilish kompetensiyasi katta maktabgacha yoshdagi bolaning atrof-muhitni anglash, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, savol berish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, oddiy xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarda yechim izlash qobiliyatini qamrab oladi. Bu yoshda bola narsalar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga intiladi, “nima uchun?”, “qanday?”, “nega bunday bo‘ldi?” kabi savollarni ko‘p beradi. Bu savollar bolaning bilishga ehtiyoji va kognitiv faolligining tabiiy ko‘rinishidir. Bilish kompetensiyasining asosiy elementlari kuzatish, solishtirish, guruhlash, umumlashtirish, tahlil qilish, sabab-oqibatni aniqlash, muammo yechish va xulosa chiqarishdan iborat. Bu elementlar bolaning elementar matematik tasavvurlari, tabiat hodisalarini anglash, predmetlar xususiyatini farqlash, fazo va vaqt haqidagi tasavvurlarini boyitish hamda oddiy tajribalar orqali rivojlanadi. Bilish kompetensiyasi shakllangan bola faqat ma’lumotni eslab qolmaydi, balki uni tushunishga, izohlashga va yangi vaziyatda qo‘llashga harakat qiladi.

Bilish kompetensiyasini shakllantirishda kuzatish, tajriba, muammoli savol, STEAM faoliyatlari, qurish-yasash, modellashtirish, taqqoslash va ijodiy-amaliy topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaga tayyor javobni berish emas, balki uni izlanishga undash, savol berishga rag‘batlantirish, taxmin qilishga imkon yaratish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish zarur. Integrativ yondashuv bilish kompetensiyasini kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar bilan bog‘liq holda rivojlantiradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyaning asosiy elementlarini shakllantirishda ijodiy-amaliy faoliyat ham alohida ahamiyatga ega. “Ilk qadam” dasturida ijodiy kompetensiya alohida tayanch kompetensiya sifatida ajratilmagan bo‘lsa-da, u kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy va bilish kompetensiyalarining amaliy namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Bola rasm chizish, yasash, sahnalashtirish, qo‘shiq aytish, qurish-yasash, hikoya tuzish va rolli o‘yinlarda o‘z tasavvuri, fikri, hissiy munosabati va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etadi.

Ijodiy-amaliy faoliyat bolaning obrazli tafakkuri, fantaziyasi, mustaqil yechim topishi, estetik idroki va o'zini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat jarayonida bola muloqot qiladi, sheriklari bilan kelishadi, material tanlaydi, natijani rejalashtiradi, ishni yakunlaydi va o'z mahsulini taqdim etadi. Demak, ijodiy-amaliy faoliyat tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda yordamchi emas, balki ularni integrativ tarzda rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning yana bir o'ziga xos xususiyati bu kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishidir. Dastlab bola kattalar ko'magida harakat qiladi, keyin faoliyatda mustaqilroq ishtirok eta boshlaydi, so'ngra egallagan tajribasini yangi vaziyatlarda qo'llashga intiladi. Shu sababli kompetensiyalarni shakllantirishda tashxis, kuzatish, individual yondashuv, rivojlantiruvchi muhit va refleksiv baholash muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning rivojlanish sur'ati, qiziqishi, nutqiy imkoniyati, emotsional holati va ijtimoiy tajribasi hisobga olinishi zarur.

Pedagogik jarayonda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun rivojlantiruvchi muhitning mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhit bolani mustaqil tanlov qilishga, faol harakatlanishga, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga, kuzatishga, tajriba qilishga va ijodiy faoliyatda qatnashishga undashi kerak. Rivojlantiruvchi muhitda o'yin burchaklari, kitoblar, konstruktorlar, tabiat materiallari, tasviriy vositalar, tajriba jihozlari, didaktik materiallar va guruhli faoliyat uchun sharoitlarning mavjudligi bolalarda tayanch kompetensiyalarning tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiyachining pedagogik pozitsiyasi ham bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda tarbiyachi bilim beruvchi shaxs sifatida emas, balki yo'naltiruvchi, kuzatuvchi, qo'llab-quvvatlovchi va faoliyatni tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi bolaga tayyor javobni berishdan ko'ra, savol berishga, izlanishga, fikr bildirishga, o'z fikrini asoslashga va faoliyatda mustaqil ishtirok etishga imkon yaratishi lozim. Shundagina bola kompetensiyani tashqi talab sifatida emas, ichki ehtiyoj sifatida egallaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi ham muhim o'rin tutadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida egallagan muloqot, mustaqillik, tartib, hamkorlik va bilishga oid ko'nikmalarini oilaviy muhitda ham qo'llash imkoniga ega bo'lishi kerak. Agar ta'lim tashkiloti va oila talablari o'zaro mos bo'lsa, bolada shakllanayotgan kompetensiyalar barqarorlashadi. Shu sababli ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik, maslahatlar, kuzatuv natijalarini muhokama qilish va oilaviy tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish muhim sanaladi. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida baholash ham o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha ta'limda baholash bolaning faqat topshiriqni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarganini aniqlashdan iborat bo'lmasligi kerak. Asosiy e'tibor bolaning muloqotdagi faolligi, mustaqil fikr bildirishi, sheriklari bilan hamkorligi, o'zini boshqarishi, savol berishi, kuzatishi, muammoni hal etishga urinishi va ijodiy

ifodalanishiga qaratiladi. Shuning uchun diagnostik kuzatuv, suhbat, faoliyat mahsulini tahlil qilish, o'yinli topshiriqlar va portfolio kabi baholash shakllari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Babayeva, D. R., Djamilova, N. N., & Xalilova, D. F. (2022).
- 2.Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma/-T:." Ilm ziyo zakovat.
- 3.Boyatzis R. E. Rendering unto competence the things that are competent. – 1994.
- 4.Elkonin D.B. Detskaya psixologiya. – Moskva
- 5.Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning omillari (o'quv qo'llanma). -T.: TDPU, 2002
- 6.Komilova D.A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2025. – 52 b.